

## **BANK FAOLIYATLARI MOLIYAVIY NATIJALARINING SHAKLLANISHI**

*Ilmiy rahbar: Juliboy o'g'li Oybek,  
SamISI, "Bank ishi" kafedrası katta o'qituvchisi  
Doston Qo'nishov Xoljigitovich  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
"Bank-Moliya xizmatlari" fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bank faoliyatlari moliyaviy natijalarining shakllanishi, tijorat banklari foydasining tahlili, bank faoliyati tahlilining asoslari va ahamiyati, bank aktivlaridan samarali foydalanishning tahlil haqida to'liq bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** bank faoliyati, moliyaviy natijalar, bank aktivlari, tijorat banklari, ustav, kapital.

### **Kirish**

Tijorat banklari bozor munosabatlari muhitida faoliyat yurituvchi hamma subyektlar kabi, faoliyatidan olgan daromadlaridan qilgan sarf-xarajatlarini qoplab, ma'lum miqdorda foyda olishlari kerak. Foyda–tijorat banklari faoliyatlarining yakuniy natijalarini ifodalovchi muhim ko'rsatkichdir. Tijorat banklari foydasi yoki faoliyatini zarar bilan yakunlagan bo'lsa, zarari mazkur hisobot mobaynida hamma daromadlaridan xarajat, shuningdek soliq va to'lovlarni chiqarib tashlangandan qolgan summani tashkil qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqoladagi tahlil statistik analiz, tartiblash, taqqoslash, ta'riflash, o'zgarishlarni tasniflash, trendlarni aniqlash va asosiy o'zgarishlarni belgilashni o'z ichiga oladi. Maqola yozish jarayonida tadqiqotning muhim tushunchalari, metodologiyasi, natijalari va ularga tegishli maslahatlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan bir qatorda maqolada qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Tijorat banklari daromadlari ikki guruhga: foizli va foizsiz daromadlarga ajratiladi. Bank daromadlari tijorat banklari mijozlariga berilgan qisqa va uzoq muddatli kreditlar uchun olingan foizlar, maboda kreditlarni davrida qaytarmagan holda mijozlardan yuqori stavkalar bo'yicha olinadigan foiz daromadlar, qimmatbaho qog'ozlar operatsiyalaridan olingan daromadlar, turli xil investitsiyalar bo'yicha olingan daromadlar kabilar foizli daromadlarga kiradi.

Bank faoliyatini tahlil qilish uchun bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hamma iqtisodiy jarayonlarni har taraflama chuqur his qilmoq, tushunmoq kerak bo'ladi. Buning uchun esa eng avallo bankning mohiyati, bajaradigan vazifalari, mazkur

vazifalarni bajarish asoslari, usullari, xullas, butun bank faoliyatiga tegishli jarayonlarni his qilmoq kerak. Bank faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan mablag'lar va ularning manbalari, o'z mablag'lari hamda majburiyatlari tarkibi, ular orsidagi mutanosiblikni ta'minlash masalalari, mazkur mablag'larni samarali yo'naltirish, bankning likvidliligi, to'lov qobiliyatini ta'minlash asoslari kabilar chuqur o'rganilmog'i zarur.

Bank aktivlari holati, dinamikasi, samaradorligi kabi masalalar doimiy ravishda tahlil etilmog'i lozim. Shu bilan birga aktivlarning likvidliligi, daromadliligi va risklilik darajasi tahlili faoliyat muvoffaqiyatining garovi sanaladi. Bank aktivlarining uning passivlari bilan mutanosibligini ta'minlash ham asosiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bank aktivlari uning xodimlari, auditorlar va markaziy bank tomonidan o'rganilib, tahlil qilib borishning davr talabi bo'lib qoladi.

Banklar mavjud aktivlaridan samarali foydalanishlari kerak. Bank aktivlari turli tuman bo'lib, ular har xil faoliyatda ishtirok etadilar. Ammo hamma aktivlarning foydalanishini umumiy ko'rsatkichlar bilan ifodalash mumkin. Tahlildan hamma aktivlarning foydalanishidan tashqari, banklar faoliyatida bir xil foydalanishda bo'lgan aktivlar guruhini alohida o'rganish zarur.

Xalqaro bank amaliyoti tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari kapitalining samaradorligini va uning yetarililigini ta'minlamasdan turib, banklarning to'lov qobiliyatini mustahkamlash va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini qozonish mushkul vazifalardan biri sanaladi. Darhaqiqat, bank kapitalining mavjudligi bankni tashkil topishi va faoliyat ko'rsatishi uchun eng muhim zarurlardan biridir.

Tijorat banklari kapitalining majburiy to'lovlardan ozodligi bankning barqaror faoliyat yuritishiga keng imkoniyat yaratadi. Aksincha, bank kapitali soliq, penya va boshqa to'lovlar, shuningdek, bankning majburiyatlari bo'yicha tobe bo'lsa, uning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi va kapital doimo iqtisodiy tomondan xavf ostida bo'ladi. Ushbu holat banklarga o'z nomidan moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirishda, omonatchilar va investorlarni bankka jalb etishda, shuningdek aholining ishonchini ta'minlanishiga salbiy ta'sir qiladi.

### **Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tijorat banklarning foydasidan ustav kapitaliga, zaxira fondiga, imtiyozli kreditlash fondiga, moddiy rag'batlantirish fondi va boshqa fondlarga ajratmalar amalga oshiriladi. Banklarning mazkur fondlariga ajratmalarning miqdori va muddati bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining qaroriga asosan belgilanadi. Bankning fondlari ichida muhim o'rinni ustav kapitali egallaydi. Tijorat banklarining ustav kapitali bank asosiy kapitali tarkibidagi maxsus zaxiralar, taqsimlanmagan foyda va emission daromadlarga qaraganda muddati va manbai tomondan barqaror sanaladi.

**Adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdullayeva Sh.Z. “Bank ishi” o‘quv qo‘llanma T. “Iqtisod-Moliya” 2010.
2. Tog‘ayev S.S. “Bank risklarini boshqarish jarayonida Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan iqtisodiy normativlarning o‘rni va roli”. 2012.
3. Niyozov Z.D., Daminov F.M. “Bank xizmatlari:hozirgi holati va rivojlantirish tendensiyalari”. S-2009.
4. Abdullayeva Sh.Z., Omonov A.A. “Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish”. O‘quv qo‘llanma./ –T.: “Iqtisod-Moliya” 2006.
5. Жулибой угли, О., & Убайдуллаева, Л. А. кизи . (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ БАНКИНГНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. SCHOLAR, 1(29), 66–73. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10055712>
6. Karimova A. M. SOURCES OF FINANCIAL AND CREDIT SUPPORT AND FACTORS HINDERING THE DEVELOPMENT OF TOURISM ENTERPRISES //Thematics Journal of Business Management. – 2021. – Т. 10. – №. 7.